


ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI ” DOSTONI HAQIDA.

Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani 2-son texnikumi ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
Turg’unboyeva Xushnoza



Kalit so'zlar: “Ruhlar isyoni” dostoni, Nazrul Islom obrazi, “G’alayon”, “Isyon qo ‘shig’i”, “Fidoiylilik haqida rivoyat” , “Tutqunlikda”, “Shohi jahon va Avrangzeb haqida rivoyat”, “Sharpalar”, Oliy ruhlar haqida rivoyat” “Ozodlik” “Zohidlar va oriflar haqida hikoyat” (rivoyat emas, hikoyat), “Nihoya”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ruhlar isyoni ” dostonidagi boblarning mazmuni haqida fikr yuritiladi.

Erkin Vohidovich Vohidov 1936-yilning 28-dekabrida Farg’ona viloyatining Oltiariq tumanida tug’ilgan. O’qituvchi bo’lib ishlagan otasi Cho’yanboy Vohidov Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, qaytib kelganidan keyin vafot etgan. Vohidov o’sha paytda to’qqiz yoshda bo’lgan. Vohidov o’sha davr qiyinchiliklarini shunday eslaydi: Otam frontda ekanida onam qishloq kengashida kotiba bo’lib ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo’xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo’shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o’zi kechgacha yig’laganini unutmayman. 1945-yil Vohidov onasi Roziyaxon Vohidova bilan Toshkentga ko’chib borgan. Onasi ham ko’p o’tmay olamdan o’tgan. Vohidov tog’asi Karimboy Sohboyev qo’lida katta bo’lgan. Vohidovning she’riyatga bo’lgan qiziqishini tog’asi uyg’otgan: Tog’am kasbi yurist bo’lsa ham adabiyot va san’atga qiziqqan, she’riyatni nozik tushunadigan

kishi edi Uyimizga tez-tez kelib turadigan shoir Chustiy, xonandalar aka-uka Shojalilovlar, Ma'rufxo'ja Bahodirov, buyuk olim va tarjimon Alixon Sog'unii, oddiy pochta xizmatchisi Mulla Shukurjon, savdo xodimi Akmalxon akalarning zukko bahslariga mahliyo bo'lib o'tirardim. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilib, har birlari o'zlaricha talqin qilishardi. Bu suhbatlar ichkiliksiz, faqat she'r va qo'shiq kayfi bilan, askiya zavqi bilan muzayyan bo'lardi.

Vohidov 1960-yil Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) filologiya fakultetini tamomlagan. So'ng turli nashriyot va gazeta-jurnallarda ishlagan. Shoir 2016-yilning 30-mayida 79 yoshda vafot etdi[8].

Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni 1977-1979 - yillarda yozilgan bo'lib, bengal shoiri Narzul Islomga bag'ishlanganligi manbalarda axborot tarzida qayd etilgan.

"Ruhlar isyoni" dostonining kompozitsion qurilmasi tizimli shaklda tartiblanib, mustaqil besh fasl va o'n rivoyatdan tashkil topgan. Har bir rivoyat keyingi faslning mantiqiy davomi bo'lib, yozuvchi qissadan hissa tarzida izchillikka amal qilgan. Dostonning kirish qismida istibdod og'ir dard sifatida aytiladi. "Abadiyat haqida rivoyat" nomli bo'limda insonning mangu yashashi emas, balki uning hayoti abadiyat uchun xizmat qilishi lozimligi aytiladi. "Shoir qalbi" faslida azaldan insonga isyon ruhi hokimligi, inson o'zligini anglashga intilib yashashi aytiladi. Narzul Islom Xisrav Dehlaviy, Bedil, Boburlar singari oshiqlik haqida sher yozib, dillarni xushnud aylashi mumkin edi, ammo taqdir unga ulug' ishni yukladi, u ozodlik haqida kuylashi o'ziga qismat deb bildi. Yaramasang kuniga.

Shoir esang,

Shoir bo'lib

Nega

kelding

hayotga

"Isyon qo 'shig'i" faslida shoir inson ozod va hur bo'lib tug'ilgan, uning uchun qullik isnodligi aytilib, inson zulmga bosh egmasligi kerak, deya uni isyonga chorlaydi. Isyon hodisaning asl mohiyatini anglash bilan boshlanadi. Isyon ham turlicha: amal uchun, etiqod uchun. Vatan ozodligi bulardan eng afzalidir. "Fidoiylilik haqida rivoyat" faslida har bir boshga bir o'lim, ammo sening o'liming ham ezgulikka xizmat qilsa, demak bekorga yashamabsan, degan g'oya singdirilgan. Sher monolog shaklida berilsa-da, ammo muallif o'zi bilan munozaraga kirishadi, murosaga boradi. Askarning o'limi malomat qilinsa-da, zero ayollarni qo'shib ko'mish odati barham topdi.

Inson aslo Yaralmagan sabrga.

Sig'inaylik o'sha tanho

Tahqirlangan qabrga.

Haq uchun

Bosh tutgan tikka

Mardlar ruhi yor bo'lsin.
Bu dunyoda nohaqlikka
Ko'nmanlar bor bo'lsin,
Zo'rlik ko'rsang,
Qilma toqat,
Har boshda bir o'lim bor,
Fidoilar umri faqat
Bu dunyoda poyidor!

“G'alayon” deb nomlangan bo'lim avvalgilari bilan ichki mantiqiy bog'liqlikda bir birini to'ldiradi. Aslida, mantiqan o'ylab ko'rilsa, g'alayon isyondan oldingi bosqich, voqelikning pishib yetilish jarayonidir. Bolimda urushning asl sababchisi hindu musulmonni bir biriga qarshi qilib, ularni o'ldirayotgan kimsalarning asl basharasi fosh qilinadi. Keyingi qismda shoir shaxsiyati, shoir o'zi kim, ijod nima kabi savollar atrofida fikr yuritiladi. Elning koriga yaramagan shoir emas degan javobni aytadi. Kichik bo'lim uch qismdan iborat. Dastlab, muallif qahramon haqida so'zlaydi. O'rtada lirik chekinish, unda muallif nuqtai nazari ravshan ko'rinadi. Keyingi qismda xulosa shaklidagi bayon beriladi. Shoirni malomat qilib, hibs etgan olamon jaholatda ekanini muallif anglaydi, ulardan og'rinmaydi. Asl fojia johillik ekani ta'kidlanadi. Johillik mohiyatini to'liqroq ochish uchun “Jaholat to'g'risida rivoyat” nomli fasl berilib, mantiqiylik ta'minlanadi. Jaholatning haqiqiy mohiyati ochib beriladi. Tabibni o'zi davolagan odamlar olovda yoqadi. Shoir manaviy ko'rlikka, qalb ko'ziga ishora qiladi. Tabibning malhamidan ko'r ko'zi ochilgan chol uni malomat qilib gulxanga o't tashlashi, asarning ta'sir kuchini yanada ortiradi. “Tutqunlikda”, “Shohi jahon va Avrangzeb haqida rivoyat”, “Sharpalar” fasllarida qahramonning uy kechinmalari, iztiroblari izchil tarzda ko'rsatib beriladi. Har bir fasl muallif maqsadi va niyatining ifodasi sifatida tartiblangan. Navbatdagi fasl “Oliy ruhlar haqida rivoyat” deb nomlanib ulug' odamlarning ruhi ham buyuk bo'ladi, millatni yo'lga boshlaydi degan fikrlar beriladi. Doston ayni dahriylik kuchaygan: yillarda

yaratilib yozuvchi qandaydir oliy ruhlar borligiga ishora qiladi, aslida bu
o'z davri uchun katta jasorat.

Bid'at yotdir menga,
Dahriy fikrat egadir.
Oliy ruhlar borligiga
Ishonaman negadir

“Ozodlik” “Zohidlar va oriflar haqida hikoyat” (rivoyat emas, hikoyat), “Nihoya” fasllarida Narzul Islom nomi xalqni kurash sari ruhlantirdi, hindu musulmon birlashtirdi, Vatan ozod bo'lishiga xizmat qilganligi bayon qilinadi. Dostondagi har bir fasl, har bir qism o'zida poetik mazmun tashigani ma'lum bo'ladi. Erkin Vohidov Narzul Islom qiyofasida o'z siyratida jo bo'lgan kechinmalarni,

iztiroblarni, o'kinchu o'tinchlarni tasvirlashga muvaffaq bo'ldi. Qahramon murojaati nafaqat muallifga balki jami dunyo ijodkorlariga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin Vohidov. Ruhlar isyoni.T.:1980
2. Erkin Vohidov.Sharqiy qirg'oq.T.:1981